

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI QO'LLAB QUVVATLASH**Qobilova Madina Sobir qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Tayanch soʻzlar: o'zbek modeli, notijorat tashkilot, demokratik islohot, nogironligi bo'lgan shaxslar, fuqarolik, tamoyil, tijorat, kompleks chora, harakatlar strategiyasi.

Ключевые слова: узбекская модель, некоммерческая организация, демократическая реформа, люди с ограниченными возможностями, гражданство, принцип, коммерция, комплексная мера, стратегия действий.

Base words: Uzbek model, non-profit organization, democratic reform, persons with disabilities, citizenship, principle, commercial, comprehensive measure, action strategy.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov boshchiligida juda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlarig va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora tadbirlar amalga oshirildi. Bularni amalga oshirishda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston rivojlanishining beshta asosiy tamoyili" yoki rivojlanishning "o'zbek modeli" katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu modelga asoslangan holda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi" qabul qilindi.[2] Bu rivojlanish dasturida biz O'zbekiston yoshlariga berilayotgan imkoniyatlar to'laqonli aks etgan. Hattoki, bu strategiyada "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" mavzusi ham o'rta tashlangan. Bundan ko'zlangan maqsad esa yoshlarni jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishdir. Mustaqillik davridan boshlab yoshlarga katta imkoniyatlar, imtiyozlar berilmoqda. Bu o'rinda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish kabilarni misollar tariqasida aytishimiz mumkin. Mustaqil O'zbekistonimizda davlat ta'minotidagi yetim bolalar, ota-ona qarovisiz qolgan, imkoniyati cheklangan bolalarga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda imkoniyati cheklanganlarga katta imkoniyatlar, grantlar va turli ma'naviy va moddiy yordamlar ko'rsatilmoqda. Ularning barchasi oddiy insonlar qatori teng huquq va erkinliklarga ega. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida mustahkamlangan bo'lib, ushbu moddada shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart". [1] Shuningdek, ularga davlatimiz tomonidan har tomonlama ko'mak va yordamlar berilmoqda.

Masalan, qonun bilan tasdiqlangan to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar, ota-ona qarovsiz qolgan bolalar hamda 1-guruh ko'zi ojiz nogironlarga ta'lim olishda keng imkoniyatlar yaratish maqsadida: oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda alohida davlat granti ajratgan holda imtiyozlar belgilash, hududlar kesimida ayrim yo'nalishlar bo'yicha maqsadli qabul kvotalarini ochish tasdiqlangan. Ularning o'qishida (eshitishda) qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida ko'zi ojizlar va eshitish qobiliyati pastlar uchun maxsus kitoblar va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqarilgan. Ularga ta'lim berishda alohida metodlar qo'llanilib, imkoniyati cheklangan bolalarga "uy ta'limi" joriy etilgan. Turli bayramlarda ularga davlat tomonidan sovg'alar beriladi. Imkoniyati cheklanganlar uchun transportlarga chegirmalar belgilanib qo'yilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 1-dekabr kuni, Xalqaro nogironlar kuni (3-dekabr) arafasida «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi farmonini imzolashi ham davlatimizning barcha imkoniyati cheklanlarga bergan katta e'tiborining isbotidir. O'zbekistonda 600 mingdan ortiq nogironlar hayot kechirmoqda. Ko'pchilik nogironlar kundalik turmushda turli qiyinchiliklarga duch kelib, bu ularning mamlakat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyiladi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga berilgan rasmiy sharhda. [3]. Mamlakatimizda nogironlarni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlarning emin erkin faoliyat yuritishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan va ushbu tashkilotlarning olib borayotgan faoliyatlari ham e'tibordan chetda qolmaydi. Jumladan, har yili nogironlarni himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchi bir qator nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyatga molik loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilib kelinmoqda. Bu ham mamlakatimizning bunday bolalarga ko'rsatayotgan katta e'tibordan dalolat beradi.[6]. Lekin, shu o'rinda ba'zi kamchiliklar ham bor. Biz xulosa o'rnida quyidagi taklif va mulohazalarni kiritmoqchimiz: Birinchidan, bizning davlatimizda imkoniyati cheklangan va nogironlar uchun aniq murojaat qila oladigan ishonch telefonlari mavjud emas. Rossiya Federatsiyasida 2016-yildan boshlab imkoniyati cheklanganlar va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ishonch telefonlari ishga tushib boshladi. Natijada ularga davlat tomonidan katta yordam berilib, ularning muammolari hal etildi. Bizning davlatimizda ham shunday ishonch telefoni ishga tushsa, ularga katta qulaylik yaratilgan bo'lardi. Hozirda ko'pchilik bunday kishilar nima qilishni, qayyerga murojaat qilishni bilishmaydi. Shuning uchun yagona ishonch raqamalari bo'lsa, ularning murojatlari ko'rib chiqilishi oson bo'lardi. Bundan ular ham manfaatdor bo'lishardi. Ikkinchidan, O'zbekistonda nogironlar jamiyatining targ'ibotchilik faoliyatini kuchaytirish zarur. Chunki aynan shu jamiyat ularning haququqlarini himoyalovchi, ularga ma'naviy va moddiy ko'maklashuvchi jamiyatdir. Ularning targ'ibotini kuchaytirish deganda ularning xayriya ishlarini kuchaytirish, fuqarolar bilan imkoniyati cheklanganlarga yordam qo'lini cho'zishga oid uchrashuvlar o'tkazish, ular bilan turli konsert dasturlarini o'tkazish va boshqalar nazarda tutiladi. Bu ishlar kuchaygan taqdirdagina ular boshqa oddiy odamlar kabi, ular

bilan bir qatorda ekanligini his qiladi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish kabi maqsadlarni oldinga tashlagan holda davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturda har bir yoshning orzu, umidi mujassamlashgan desak adashmaymiz. Uchinchidan esa, "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" bo'limida nogiron bolalarga ham alohida qarash belgilab berilishini istar edik. Bu bolalarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishning yana bir omili bo'lar edi. Bu yoshlar o'rtasida ularning orasidan talantli, bilimlilarini tanlab olib, ularning iqtidorini yuksaltirgan holda chet ellarga o'qishga yuborish, ularni ham to'garaklarga jalb qilish iqtidorini oshirish lozim. Ular ham boshqalar kabi Vatan uchun xizmat qilishni xohlashadi, albatta. Vaholanki, kelajak yoshlar qo'lida. Ular hatto uydan chiqmay hunarmandlik bilan shug'ullanishi, yangi saytlar yaratishi, she'rlar va asarlar yaratishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz", deya aytganlar o'zining "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida.[4]. Shunday ekan Vatanimizga munosib farzand bo'laylik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlatimiz rahbari tomonidan judayam ko'plab shart-sharoitlar qilinmoqda. Bizning davlatimizda hamma teng huquqli va e'tibor markazida jamiyatimizdagi barcha insonlar turushini bilamiz. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ham imtiyozlar, imkoniyatlar yaratilgan va yartilib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari xalqi uchun yashaydigan fidoyi inson ekanliklarini ushbu qarorlari bilan ham fahmlashimiz mumkindir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2014-yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent: "O'zbekiston" MNIU. 2016yil. 14bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, PF5270. 04.12. 2017-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi" farmoni. PF-4849. 7. 02. 2017 yil.
5. Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil qat'iy tartibintizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent: "O'zbekiston" MNIU. 2017yil. 47-bet
6. O'zbekiston milliy axborot agentligi sayti: uza.uz.
7. Panjiyev, J. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARNI RASMLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH. *Interpretation and Researches*, 2(1).
8. Jurakul PANJIEV. (2023). IMPROVEMENT OF ECOLOGICAL CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON INTEGRATION OF SCIENCES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 84-89.

9. Jurakul PANJIEV. (2023). PRIMARY CLASS CONTENT OF MATERIALS ON IMPROVING THE STUDENTS' ECOLOGICAL CONCEPTS BASED ON THE INTEGRATION OF THE SCIENCES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 90-95.

10. Jurakul Panjiev. (2023). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF INTEGRATION OF MODERN PRIMARY EDUCATION LESSONS. *Academia Repository*, 2(11), 37-45.

11. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

12. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

Rezyume

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar haqida keltirdik. Ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tdik.

Резюме

В этой статье мы рассказали о детях с ограниченными возможностями. Мы предоставили им информацию о создаваемых возможностях, преимуществах.

Resume

In this article we have brought about children with disabilities. We brought to them information about the opportunities created, benefits.